



## INKLYUZIV TA'LIM TEXNOLOGIYASI SAMADORLIGINI OSHIRISH MEZONLARI

*Xakimova Gulchehra Sayrixonovna*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

*Pedagogika kafedrası o'qituvchisi*

[gulchehrahakimova019@gmail.com](mailto:gulchehrahakimova019@gmail.com)

*Mamadaliyeva Mashxura Salim qizi*

*Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti*

*Matematika va Informatika yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

[mashxura.mamadaliyeva.05@gmail.com](mailto:mashxura.mamadaliyeva.05@gmail.com)

**Annotasiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim texnologiyalarining mazmuni, mohiyati va amaliyotdagi ahamiyati yoritilgan. Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun ta'lim muhitini yaratish, ularning ijtimoiy integratsiyasini ta'minlash, teng imkoniyatlar asosida rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi texnologik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, o'qituvchilarning tayyorgarligi, metodik vositalar, raqamli resurslardan foydalanish va dars jarayonini differentsiallashtirishga doir ilg'or tajribalar bayon etilgan. Maqolada inklyuziv ta'limda pedagogik innovatsiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o'rni ham ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zi:** Inklyuziv ta'lim, maxsus ehtiyoj, texnologiya, pedagogik innovatsiya, raqamli ta'lim, ijtimoiy integratsiya, o'quvchi markazli yondashuv, differentsial ta'lim, AKT, metodika.

## КРИТЕРИИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНКЛЮЗИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*Гульчехра Сайрихоновна Хакимова*

*Преподаватель кафедры педагогики*



*Шахрисабзского государственного  
педагогического института  
[gulchehrahakimova019@gmail.com](mailto:gulchehrahakimova019@gmail.com)*

***Маишхура Салим кызы Мамадалиева***

*Студентка 2-го курса факультета педагогики,  
направления математика и информатика*

*Шахрисабзского государственного педагогического института  
[mashxura.mamadaliyeva.05@gmail.com](mailto:mashxura.mamadaliyeva.05@gmail.com)*

**Аннотация:** В данной статье раскрывается содержание и значение инклюзивных образовательных технологий, направленных на создание благоприятной учебной среды для детей с особыми образовательными потребностями. Рассматриваются технологические подходы, способствующие социальной интеграции учащихся и обеспечению равных возможностей в обучении. Освещаются вопросы подготовки педагогов, использование методических материалов, цифровых ресурсов, а также практики дифференцированного обучения. Особое внимание уделено роли педагогических инноваций и информационно-коммуникационных технологий в реализации инклюзивного образования.

**Ключевое слово:** *Инклюзивное образование, особые образовательные потребности, образовательные технологии, педагогические инновации, цифровое обучение, социальная интеграция, ученико-ориентированный подход, дифференцированное обучение, ИКТ, методика.*

## **CRITERIA FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF INCLUSIVE EDUCATION TECHNOLOGIES**

***Gulchehra Sayrixonovna Khakimova***

*Lecturer at the Department of Pedagogy  
Shahrisabz State Pedagogical Institute*



[gulchehrahakimova019@gmail.com](mailto:gulchehrahakimova019@gmail.com)

**Mashxura Salim qizi Mamadaliyeva**

*2nd-year student of the Faculty of Pedagogy*

*Mathematics and Informatics Department*

*Shahrisabz State Pedagogical Institute*

[mashxura.mamadaliyeva.05@gmail.com](mailto:mashxura.mamadaliyeva.05@gmail.com)

**Annotation:** This article explores the concept and significance of inclusive education technologies aimed at creating a supportive learning environment for students with special educational needs. It analyzes technological approaches that foster social integration and ensure equal learning opportunities. The paper highlights the importance of teacher preparedness, use of methodological tools, digital resources, and differentiated instruction. Special attention is given to the role of pedagogical innovations and information and communication technologies (ICT) in implementing inclusive education practices.

**Keywords:** *Inclusive education, special educational needs, educational technologies, pedagogical innovation, digital learning, social integration, learner-centered approach, differentiated instruction, ICT, methodology.*

Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim tizimida inson huquqlarini ta'minlash, teng imkoniyatlar yaratish va har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim berish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan inklyuziv ta'lim yondashuvi dunyo bo'ylab keng e'tirof etilmoqda. Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalar, jumladan, nogironligi yoki maxsus ehtiyojlari mavjud bo'lgan o'quvchilarning umumiy ta'lim muassasalarida birgalikda o'qishiga sharoit yaratadigan tizimdir. Ushbu tizimda asosiy e'tibor ta'lim muhitini moslashtirish, pedagogik uslublarni takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali har bir bolaga sifatli ta'lim berishga qaratiladi.



Zamonaviy inklyuziv ta'lim texnologiyalari o'qitish jarayonini samarali tashkil qilish, individual yondashuvni amalga oshirish hamda o'quvchilarni ijtimoiy jihatdan moslashtirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim texnologiyalarining turlari, ularning amaliyotdagi qo'llanishi, shuningdek, pedagoglarning roli va AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

**Inklyuziv ta'lim** (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion - uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'Mom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umum ta'lim jarayoniga qo'shishni.

Dunyo bo'yicha maktablarda inklyuziyaga ko'pincha umumta'lim maktablarida nogironlarni o'zlarining tengdoshlari bilan birga ta'lim olish deb qaraladi. Biroq inklyuziv ta'limning mazmun-mohiyati to'g'risidagi bilim va ma'lumotlar hali jamiyatda yetarli emas. «Inklyuziv» va «integratsiyalashgan» atamaları ko'pincha bir xil ma'noda ishlatiladi.

Nogiron bolani oddiy sharoitga moslashtirish integratsiyaga qarab qo'yilgan birinchi qadamdir. Imkoniyati heklangan bolalarning umumta'lim muassasalari tarkibiga qamrab olinishi jahon miqyosida «inklyuziv» yoki «integratsion» ta'lim atamaları bilan ataladi. Integratsiyalashgan ta'lim bu - diqqat markazida bolaning aynan maktabga kelib-ketish muammosi turgan, maxsus ehtiyojli bolaning maktab ta'limiga qamrab olishdir.

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga alohida yordamga muhtoj shaxs sifatida qaraladi. Ushbu ta'lim tizimining quyidagi shakllari mavjud:

Jismoniy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli nogiron va nogiron bolmagan bolalar o'rtasidagi jismoniy farqni kamaytirishga qaratilgan. Oddiy



maktab bilan yomna-yon joyda nogiron bolalar uchun maxsus bo'lim yoki sinf tashkil qilish mumkin.

Funksional integratsiya. Bu shakl nogiron va nogironbo'lmagan bolalar o'rtasidagi funksional muammolarni kamaytirishga qaratilgan.

Ijtimoiy integratsiya. Integratsiyaning bu shakli ijtimoiy muammolarni kamaytirishga qaratilgan va u nogiron hamda nogiron bo'lmagan bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqani qo'llab-quvatlaydi ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'lim siyosati turli xil ehtiyojli bolalarning ta'lim olishini qo'llab-quvatlaydi, va yutoqqa erishishga yordam beradi hamda yaxshi hayot qurishiga imkon yaratadi.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarni hal etish talab etiladi:

- talim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarning bilim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo'naltirilgan umumta'lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy va ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish; o'quvchilarning ta'limdagi teng huquqliligini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatan do'stlik va mehr-muhabbat munosabatini shakllantirish.

Inklyuziv ta'limda resurs pedagog va uning vazifalari shundan iboratki. Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitish maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi, ya'ni, resurs o'qituvchi faoliyatini talab etadi. Inklyuziv ta'lim amaliyotida maktablararo qatnab yuruvchi o'qituvchi va oddiy sinf



o'qituvchisining hamjihatlikdagi harakatlari orqali amalga oshirilishi mumkin. Ba'zi sinflarda bolani ma'lum bir vaqtga sinfdan ajratib olish kerak bo'lishi mumkin. Hamma vaqt resurs o'qituvchi sinf o'qituvchisi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishi va maxsus ta'lim sohasida mutaxassislikka ega bo'lishi talab qilinadi.

**Xulosa:** Jamiyat taraqqiyoti, inson huquqlarini ta'minlash va har bir fuqaroning to'laqonli ijtimoiy hayotda ishtirok etishini ta'minlash yo'lida inklyuziv ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim tizimida imkoniyati cheklangan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'qitish, ularning imkoniyatlarini to'g'ri baholash, salohiyatini yuzaga chiqarish va moslashuvchan ta'lim muhitini yaratish orqali ta'limning insonparvarlik tamoyillariga asoslangan yangi bosqichiga erishilmoqda.

Maqolada ko'rib chiqilganidek, inklyuziv ta'lim nafaqat nogironligi bo'lgan bolalar, balki turli ijtimoiy, iqtisodiy yoki psixologik to'siqlar tufayli an'anaviy ta'limdan chetda qolayotgan barcha bolalar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini ochib beradi. Integratsiya va inklyuziya tushunchalari o'rtasidagi farqlarni anglash, ularning amaliyotdagi qo'llanilish shakllarini ajrata olish ta'lim sohasidagi mutaxassislar, xususan, pedagoglar uchun muhimdir.

Shuningdek, inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish uchun zamonaviy ta'lim texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalari, moslashtirilgan metodikalar va resurs o'qituvchilarning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Resurs pedagoglar va umumta'lim o'qituvchilari o'rtasidagi hamkorlik, bolalarga individual yondashuv va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi inklyuziv ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardandir.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim – bu faqat ta'lim shakli emas, balki butun jamiyatning ma'naviy yuksalishi, bag'rikengligi va insonparvarlik darajasining ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu boisdan ham, mamlakatimizda bu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlar, kadrlar tayyorlash tizimi, texnologik va metodik yondashuvlar takomillashuvi inklyuziv ta'limning barqaror va samarali



rivojlanishiga xizmat qilishi lozim. Har bir bola, u kim bo'lishidan qat'i nazar, o'qishga, rivojlanishga va jamiyatda o'z o'rnini topishga haqli.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 28.01. 2022 . PF – 60 –SON 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.
2. Hakimova G. S. "Xorijiy tajribalar asosida nodavlat ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirishning nazariy asoslari"TA'LIM VA INNOVATION TADQIQOTLAR №2/2024 fevral (2)
4. Hakimova , G. (2023). Nodavlat ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirishning ilmiy nazariy asoslari. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(25).
5. UNESCO (2017). \*Global Education Monitoring Report 2017: Accountability in Education: Meeting Our Commitments\*. UNESCO Publishing.
6. UNICEF (2021). \*Education Quality and Learning Outcomes\*. Retrieved from [unicef.org](https://www.unicef.org)
7. Смирнова, Е. И. – "Методики начального обучения: частные и государственные школы".
8. Mamadaliyeva , M. ., & To'rayeva, C. . (2024). TASHQI XOTIRA QURILMALARI. AXBOROTLARNI KIRITISH - CHIQRISH QURILMALARI. Наука и технология в современном мире, 3(13), 126–135.
9. Qodirov , F. ., Mamadaliyeva , M. ., & To'rayeva , C. . (2025). BULUTLI VA TAQSIMLANGAN HISOBLASHNING FARQLI JIHATLARI. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 4(3), 63–69.
10. Qodirov , F. ., To'rayeva , C. ., & Mamadaliyeva, M. (2025). KOMPYUTER TARMOQ TURLARI. Наука и инновация, 3(6), 159–165.
11. Zaxiriddinova , S. ., & Mamadaliyeva , M. . (2025). Markaziy parallel proetksiyalash va ularning xossalari. Наука и инновация, 3(8), 72–78.



12. Zaxiriddinova, S. ., & Mamadaliyeva , M. . (2025). Diskrit matematika va matematik mantiq tarixi va uning asoslari. Tarixiy ma'lumotlar. Наука и инновация, 3(8), 79–84.
13. Hakimova, Gulchehra. "ZAMONAVIY JAMIYATDA INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM TURIZMINING ROLI." YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TURIZM ISTIQBOLLARI 1.01 (2024).
14. Hakimova, Gulchehra, and Gulandom Raxmatova. "RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHDAGI O'RNI HAMDA YANGI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONLARI BILAN INTEGRATSIYALASHUVI." Молодые ученые 3.18 (2025): 102-105.
15. Jabborov Maksud Bahriddinovich; Khakimova Gulchekhra Sayrikhonovnaa; Norova Dilobar Bakhromovna. "PROBLEMS OF TEACHING AND EDUCATING CHILDREN WITH DISABILITIES IN INCLUSIVE EDUCATION." EDUCATION SCIENCE AND INNOVATIVE IDEAS IN THE WOR. 2.1 (2025): 306-310.